



## O'ZGARMAS TOK MASHINASIDA YAKOR REAKSIYASI

*Mamadaliyev Maxammadjon Axmadaliyevich*

*Andijon mashinasozlik instituti assistenti*

*Zokirova Iradaxon Zakrullaevna*

*Andijon mashinasozlik instituti katta o'qituvchi*

*Yuldashev Bo'stonbek Ravshanbek o'g'li*

*Andijon mashinasozlik instituti assistenti*

**Annotatsiya:** O'zgarmas tok mashinasining generator rejimida geometrik neytral chizii yakorning aylanish yo'nalishi bo'yicha, dvigatel rejimida esa, qarama-qarshi tomonga buriladi. Yakorning ko'ndalang reaktsiyasi qutb o'zagi tagida joylashgan o'tkaz-gichlarning bir qismida bir tomonga yo'nalgan elektr yurituvchi kuchni xosil qilsa, ikkinchi qismida boshqa tomonga yo'nalgan elektr yurituvchi kuchni induktsiyalaydi, bu elektr yurituvchi kuchlarning yiindisi doim nolga teng. Bu masalani yechishda mashinaning magnit zanjirini to'ynishini xisobga olinmaydi. Magnit zanjiri to'ymagan mashinalarda yakorning ko'ndalang reaktsiyasi qutb o'zagi ostidagi magnit maydonining kattaligiga ta'sir ko'rsatmasdan faqat formasiga ta'sir ko'rsatishi. To'yingan magnit sistemali o'zgarmas tok mashinalarida yakor reaktsiyasi qutb o'zagining bir qismida magnit maydonni kuchaytirib boshqa qismida kuchsizlanrilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract:** In the generator mode, the geometric neutral of an AC machine is oriented in the direction of rotation of the anchor, and in the motor mode, in the opposite direction. The transverse reaction of the anchor creates an electromotive force in one part of the conductors located under the pole core, directed in one direction, and induces an electromotive force directed to the other part, the sum of these electromotive forces is always equal to zero. When solving this problem, the saturation of the magnetic circuit of the machine is not taken into account. In machines where the magnetic circuit is not saturated, the transverse reaction of the anchor does not affect the magnitude of the magnetic field under the pole core, but



only its shape. It is shown that in AC machines with saturated magnetic systems, the anchor reaction strengthens the magnetic field in one part of the pole core and weakens it in the other part.

**Абстрактный:** В генераторном режиме геометрическая нейтраль машины переменного тока ориентирована в направлении вращения якоря, а в двигательном режиме — в противоположном направлении. Поперечная реакция якоря создает в одной части проводников, расположенных под сердечником полюса, электродвигущую силу, направленную в одну сторону, и индуцирует электродвигущую силу, направленную в другую часть, сумма этих электродвигущих сил всегда равна нулю. При решении этой задачи насыщение магнитной цепи машины не учитывается. В машинах, где магнитная цепь не насыщена, поперечная реакция якоря не влияет на величину магнитного поля под полюсным сердечником, а только на его форму. Показано, что в машинах переменного тока с насыщенными магнитными системами реакция якоря усиливает магнитное поле в одной части сердечника полюса и ослабляет его в другой части.

**Kalit so‘zlar:** o’zgarmas tok, generator, yakor, dvigatel, qutb, elektr yurituvchi kuch, kuchlar, magnit zanjir, sistema, tok, mashinalar, geometrik neytral, bo‘ylama yakor reaktsiyasi, parallel, elektr yurituvchi kuch, elektr cho‘tkalar.


**Key words:** alternating current, generator, anchor, motor, pole, electric motive force, forces, magnetic circuit, system, current, machines, geometric neutrality, longitudinal anchor reaction, parallel, electric motive force, electric brushes.

**Ключевые слова:** переменный ток, генератор, якорь, двигатель, полюс, электрическая движущая сила, силы, магнитная цепь, система, ток, машины, геометрическая нейтральность, продольная реакция якоря, параллельная, электрическая движущая сила, электрические щетки.


Yakor chulg’ami orqali tok oqmagan ya’ni salt ishlash rejimi uchun o’zgarmas tok mashinasining xavo bo’shlidiagi magnit maydonni (1,a-rasm)

keltirilgan. Agar yakor cho'lg'ami iste'molchiga ulangan bo'lsa, u xolda bu chulg'am orqali elektr toki oqib o'tadi va o'zining magnit maydonini xosil qiladi.

Mashinaning cho'tkalari geometrik neytral chiziqda o'rnatilgan bo'lsa, yakor chulg'aming magnit maydon kuch chiziqlari qutb o'zaklarining o'qiga ko'ndalang yo'nalgan bo'ladi (1,b-rasm). Elektr mashinaning validagi elektromagnit moment qo'zatish va yakor chulg'amlari xosil qilgan magnit maydonlarning o'zaro ta'siri natijasida xosil bo'ladi. Demak, yakor va qo'zatish chulg'amlari o'zgarmas tok mashinasining umumiy maydonini xosil qilishar ekan.




1-rasm. Qo'zatish chulg'aming (a) va yakorning (b) magnit maydonlari  
Yakor chulg'ami xosil qilgan magnit maydon qo'zatish chulg'ami xosil qilgan magnit maydonni ko'rinishini va kattaligini sezilarli darajada o'zgartiradi, bu xolga o'zgarmas tok mashinasining yakor reaksiyasini deb ataladi. Yuqorida aytganimizdek, cho'tkalar kollektor yuzasida geometrik neytral chiziida o'rnatilgan bo'lsa, yakor reaksiyasining maydon kuch chiziqlari qutb o'qiga ko'ndalang yo'nalgan bo'ladi, shuning uchun bunday xolga yakorning ko'ndalang reaksiyasini deb ataladi.



3-rasm. Bo'ylama yakor reaktsiyasining magnit maydoni

Yakorning ko'ndalang reaktsiyasi qutb o'zagining birinchi yarmida asosiy magnit maydonni kuchaytirsa ikkinchi yarmida kuchsizlantiradi. Yakorning ko'ndalang reaktsiyasi ta'sirida mashinaning yakor yuzasidagi induktsiya nolga  $V=0$  teng bo'lган nuqtalardan o'tgan geometrik neytral chizii  $\beta$  burchakka buriladi, bu chiziqqa mashinaning fizik neytral chizii deb ataladi (2-rasm).



2-rasm. CHo'tkalari geometrik neytral chiziida o'rnatilgan elektr mashinaning umumiy magnit maydoni

O'zgarmas tok mashinasining generator rejimida geometrik neytral chizii yakorning aylanish yo'nalishi bo'yicha, dvigatel rejimida esa, qarama-qarshi tomonga buriladi. Yakorning ko'ndalang reaktsiyasi qutb o'zagi tagida joylashgan o'tkaz-gichlarning bir qismida bir tomonga yo'nalgan elektr yurituvchi kuchni xosil qilsa, ikkinchi qismida boshqa tomonga yo'nalgan elektr yurituvchi kuchni induktsiyalaydi, bu elektr yurituvchi kuchlarning yig'ndisi doim nolga teng. Agar elektr cho'tkalar geometrik neytral chiziidan  $90^\circ$  ga burilgan bo'lsa (3-rasm), u xolda yakor chulg'ami xosil qilgan magnit maydon kuch chizilari qutb o'zagining o'qiga parallel yo'naladi. Shuning uchun yakorning bunday reaktsiyasiga bo'ylama yakor reaktsiyasi deb ataladi. Yakor chulg'amining xosil qilgan magnit maydoni yakor chulg'amidagi tokning yo'nalishiga asosan, asosiy magnit oqimga magnitlovchi va magnitsizlantiruvchi taosir ko'rsatishi mumkin. Yakor chulg'ami xosil qilgan maydonlarning o'zaro ta'siri natijasida elektromagnit moment xosil bo'lmaydi va cho'tkalarda induktsiyalangan elektr yurituvchi kuch xam nolga teng. Ko'pincha elektr cho'tkalar geometrik neytral chiziida o'rnatiladi, lekin ba'zi



xollarda cho'tkalar aniq shu chiziqga o'rnatilmasligi ya'ni, bu chiziqdan ma'lum burchakka burilishi xam mumkin. U xolda yakor reaktsiyasini bo'ylama va ko'ndalang tashkil etuvchilarga bo'lib o'rganiladi.

Yakor reaktsiyasini yaxshilash usullari.

Yakor reaktsiyasini xisoblashni soddalashtirish maqsadida quyidagi shartlarni qabul qilamiz:

1. Yakorning magnit o'zagini tashqi yuzasida pazlar yo'q;
2. Yakor chulg'aming o'tkazgichlari yakor yuzasida bir xil tarqalgan;  
Yakor reaktsiyasini xisoblash uchun xam magnit o'zakni xisoblashda qo'llanilgan to'la tok qonunidan foydalanamiz.


$$\oint H dl = \Sigma i$$

bu yerda:  $N$  - maydon kuchlanganligi;  $\Sigma i$  - uchastkalardagi toklar;  $dl$  - uchastka uzunligi.

Bu masalani yechishda mashinaning magnit zanjirini to'yinishini xisobga olmaymiz. Magnit zanjiri to'yinmagan mashinalarda yakorning ko'ndalang reaktsiyasi qutb o'zagi ostidagi magnit maydonining kattaligiga ta'sir ko'rsatmasdan faqat formasiga ta'sir ko'rsatadi. To'yingan magnit sistemali o'zgarmas tok mashinalarida yakor reaktsiyasi qutb o'zagini bir qismida magnit maydonni kuchaytirib boshqa qismida kuchsizlantiradi.

Yakor reaktsiyasining xavo bo'shliidagi asosiy magnit maydonga ta'sirini 4-rasmdan ko'rishimiz mumkin. Xavo bo'shliidagi qo'zatish magnit maydonini tarqalishini 1-egri chiziq va 2-egri chiziq yakor reaktsiyasining maydon induktsiyasini xavo bo'shliidagi tarqalishini xarakterlaydi. To'yinmagan magnit sistemali o'zgarmas tok mashinalarining xavo bo'shliidagi magnit maydonlarining yiindisi bo'lib, xisoblangan umumiylar maydonning o'zgarish xarakterini aniqlovchi 3-egri chiziqlari 1 va 2-egri chiziqlarning xar bir nuqtadagi ordinatalarini qo'shib xosil qilamiz. Mashinaning magnit o'zagini to'yinishini xisobga olinganda umumiylar maydon punktir bilan belgilangan 4-egri uzilgan chiziq ko'rinishida o'zgaradi. Shuning uchun to'yingan magnit sistemali o'zgarmas tok mashinalarda ko'ndalang

yakor reaktsiyasi qutb o'zaklarining magnit maydonini bir oz kamaytiradi, yaoni asosiy magnit oqimga magnitsizlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi deyiladi.



4-rasm. Mashinaning xavo bo'shliidagi magnit maydonini ko'ndalang yakor reaktsiyasi ta'sirida o'zgarishi

Ba'zi xollarda quvvati 30-40 kVt gacha va undan katta quvvatli mashinalarda yakor reaktsiyasi taosirida qutb o'zagi ostidagi magnit maydonning yo'nalishi karama-qarshi tomonga o'zgarishi mumkin. Nominal quvvati 50 kVt dan katta elektr mashinalarda maydonning yo'nalishini o'zgarmasligini taominlash uchun asosiy qutb o'zagining ikki chekkalaridagi xavo bo'shlii kattalashtiriladi.

YAkor reaktsiyasini xisoblash uchun juda ko'p usullar tavsiya qilingan bo'lib, bulardan Kaspyanov V.T. va Petrov G.N lar tavsiya qilgan yuzalarni tenglashtirish usullari keng qo'llaniladi.

Magnit maydon formasini o'zgarmasligini va kollektor plastinalari orasidagi kuchlanishni belgilangan chegaradan ortib ketmasligini taominlash uchun o'zgarmas tok mashinalarida kompensatsiyalovchi cho'lg'amlar qo'llaniladi.

Kompensatsiyalovchi cho'lg'amlar xosil qilgan magnit maydon yordamida yakor reaktsiyasini to'liq kompensatsiyalash mumkin.

Kompensatsiyalovchi cho'lg'am elektr mashinaning asosiy qutb o'zaklarini xavo bo'shliiga yaqin qismida frezalanib, tayyorlangan pazlarga joylashtiriladi. Kompensatsiyalovchi cho'lg'am sektsiyalari bir-biri bilan ketma-ket ulanadi. YAkor reaktsiyasi yakor toki taosirida xosil bo'lganligi sababli uni kompensatsiyalash



maqsadida qo'llanilayotgan kompensatsiyalovchi cho'lg'am cho'tkalar yordamida yakor cho'lg'amiga ketma-ket ulanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Липкин Б.Ю., "Электроснабжение промышленных предприятий и установок", Учебник. -М.: "Высшая школа", 1980.
2. Кудрин Б.И., Электроснабжения промышленных предприятий. Учебник. -М.: Интермет Инжиниринг, 2005.
3. Қодиров Т.М., Алимов Ҳ.А., «Саноат корхоналарининг электр таъминоти», Ўқув қўлланма, ТошДТУ. -Т.: 2006.
4. Қодиров Т.М., Алимов Ҳ.А., Рафиқова Г.Р., Саноат корхоналари ва фуқаро биноларининг электр таъминоти. Ўқув қўлланма. ТошДТУ, -Т.: 2007.
5. Таслимов А.Д., Расулов А.Н., Усмонов Э.Г., Электр таъминоти. Ўқув қўлланма. Илм-зиё. -Т.: 2012.
6. Мамадалиев, Махаммаджон Ахмадалиевич. "ЭЛЕКТРОЭНЕРГИЯ В СИСТЕМАХ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 4.2 (2024): 75-78.
7. Zakrullayevna, Zakirova Irodaxon, et al. "ELECTRIC DOWNLOAD DIAGRAMS AND SELECTION OF ELECTRIC ENGINE POWER." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.04 (2022): 33-37.
8. Yuldashev B. R. DIRECTIONAL RELAY-RESISTANCE RELAY MATHEMATICIAN DUALISM //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 107-110.
9. Yakubovich A. B. et al. ПРОВОДА ЛЭП ПОРА МЕНЯТЬ ИЗ ЗА НИЗКОЙ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ В ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 144-148.
10. Азизов Б. С., Салимова И. У., Аюпова Ш. Т. Вульгарная Пузырчатка И Ее Аспекты //ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ. – 2020. – №. 12-2. – С. 4.



11. Абдурахманов С. У., Абдуллаев М., Шукуралиев А. Ш. Повышение энергоэффективности промышленных установок и технологических машин //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 2. – С. 238-242.
12. Teshaboyev R. I. O. G., O'Tanov A. A. O. G. ENERGIYA SAMARALI BOSHQARILUVCHI O'ZGARMAS TOK O'ZGARTGICHLAR VA ULARNING AVFZALLIKLARI //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 119-122.
13. Zaynabidin о'г'ли M. B. X., & Xolmirza Azimjon о 'г 'ли, M.(2023). MIKROPROTSESSORLI BOSHQARILUVCHI ELEKTR YURITMALARNING AFZALLIKLARI VA VAZIFALARI //Innovative Development in Educational Activities. – Т. 2. – №. 1. – С. 80-87.
14. Arzikulov X. M. ugли SIQILGAN HAVO TIZIMLARIDA ENERGIYA TEJASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14 SPECIAL. – С. 620-625.
15. Uktamovich A. S. et al. НОРМИРОВАНИЕ РАСХОДА ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 338-341.
16. Abdixoshimov M., Tojimurodov D. KRANLAR TO 'G 'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 5-7.
17. Абдихошимов М. ВЫБОР СИЛОВОЙ СХЕМЫ КРАНОВОГО ТПН //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 99-102.
18. Turatbekova, A., Masharipova, M., Umarova, F., Khalmuradova, E., Rustamova, R., Abdixoshimov, M., & Teshaboyev, R. (2024). Research into biologically active plant terpenoids and the mechanisms underlying on biological activity. In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03076). EDP Sciences.